

MAYMUNJON O‘SIMLIGINING MEVASI HAMDA URUG‘INING KIMYOVIY TARKIBI

Davidov Maxmudjon Adxamovich

Farg‘ona Davlat universiteti Biologiya fanlar nomzodi, dotsent.

Ismoilova Husnida Umid qizi

Farg‘ona davlat universiteti Magistratura bo‘limi

Biotexnologiya yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Maymunjon o‘simligining morfologiyasi, foydali xususiyatlari, mevasi hamda urug‘ining kimyoviy tarkibi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Maymunjon, Ranoguldoshlar oilasi, efir, oqsil, kaliy va fosfor tuzi, solisil, olma, chumoli kislotalari, *Rubus idaeus*.

Maymunjon (*Rubus caesius* L.) Ranoguldoshlar oilasiga mansub butasimon o‘simlik bo‘lib, bo‘yi 50 sm 150 smgacha bo‘ladi. Ko‘pincha, yotib o‘sadi. Bir yillik novdalari yoysimon, egilgan silindr shaklida ko‘p tikanli ba‘zan dag‘al tuklar bilan qoplangan bo‘ladi. Bargi 3 bargchali, barg bandi tukli va tikanli, bargchalari noto‘g‘ri tishsimon qirqilgan, oxirgisi tuxumsimon-romb shaklida o‘tkir, ko‘pincha, yonidagi barglari 2 bo‘laklidir. U may-iyun oylarida gullaydi. Mevasi bir qancha danakchali, ko‘k qoramtir ranglidir. Guldor novdalari uzun, ularda to‘pgullar o‘rnashgan bo‘ladi. Mevasi iyun-iyulda pishadi. Maymunjon tog‘ mintaqasining o‘rta qismigacha bo‘lgan joylarda tarqalgan. U ariq va daryo qirg‘oqlarida, zax yerlarda, to‘qayli hamda toshli qoyaliklarda o‘sadi. Xalq tabobatida maymunjonning xom mʼvasidan zotiljam kasalligini, bargidan tayyorlangan qiyomdan esa tomoq og‘rigini davolatishda foydalaniladi. Oziq-ovqat sanoatida turli konfjtlar, yoqimli likyor, spirsiz ichimliklar, limonadlar ishlab chiqarish mumkin. Uning mʼvasi tarkibida shakar, efir, oqsil, kaliy va fosfor tuzi, solisil, olma, chumoli va limon kislotalari va S vitamini ko‘p bo‘ladi. Bargi tarkibida esa 300 mg % S vitamini bo‘ladi. Maymunjon sifatli asalchil o‘simliklar gruppasiga kiradi. Bo‘yi 1—2 m ga yetadigan yarimbuta. Ildizpoyadan ikki yillik yerustki novdalar o‘tib chiqadi.



Birinchi yilgi novdalari yashil, yog‘ochlanmagan, mayda tikanli bo‘lib, meva qilmaydi. Bu poya qishga borib yog‘ochlanadi, tikanlari ham yo‘qoladi va kelasi yili iyun-iyul oylarida gullaydi. Mevasi pishgandan so‘ng eski poyasi qurib qoladi. Ildizpoyadan har yili yangi poyalar o‘sib chiqadi. Barglari toq patli murakkab, 5—7 ta bargchadan tashkil topgan bo‘lib, poyada uzun bandi bilan ketma-ket joylashgan. Poyaning yuqori qismidagi barglari ko‘pincha uch plastinkali bo‘ladi. Bargchasi tuxumsimon, yuqori tomoni tuksiz, pastki tomoni esa tukli. Gullari ko‘rimsiz, yashil-oq, qalqonsimon ro‘vakka to‘plangan. Gulkosachasi 5 ga qirqilgan meva bilan birga qoladi. Tojbargi 5 ta, otaligi va onaligi ko‘p sonli. Mevasi — qizil, danakli, murakkab ho‘l meva. Iyun-iyul oylarida gullaydi, mevasi iyul-avgustda pishadi.

Geografik tarqalishi. Ukraina, Moldova, Belarus, Boltiqbo‘yi davlatlari, Rossiyada, Kavkaz, O‘rta Osiyoda, o‘rmon chetlarida, tog‘larda, ariq bo‘ylarida, butalar orasida o‘sadi. Mahsulot Rossiya viloyatlarida, Ukraina va Litva respublikalarida tayyorlanadi. Mahsulot tayyorlash. Pishgan mevalar qurg‘oqchilik paytida gul o‘rnisiz yig‘ib olinadi. Yig‘ilgan mahsulot yupqa qilib yoyib, quyoshda so‘litaladi. So‘ngra 2,5—3,5 sm qalinlikda yoyib, pechlarda yoki quritgichlarda 50—60°C da quritiladi. Quritilgan meva navlarga ajratiladi, qorayganlari terib tashlanadi. Mahsulotning tashqi ko‘rinishi. Tayyor mahsulot quritilgan mevadan iborat. Meva murakkab bo‘lib, 30—60 tagacha alohida danakchalardan tashkil topgan. Danakchalar bir-biri bilan birlashib, yuqori tomoni yumaloq bo‘lgan, bo‘sh, konus shaklini tashkil etadi. Alohida danakcha mayda, tuxumsimon, bir urug‘li, ustki tomoni mayda chuqurchali bo‘lib, tuklar bilan qoplangan. Mahsulot kulrang-qizil tusli, biroz xushbo‘y hid va nordon-shirin ta‘mga ega. Meva quruq yerda saqlanishi kerak.

Kimyoviy tarkibi. Meva tarkibida organik kislotalar (2,2% gacha olma hamda limon, salitsilat, vino, chumoli va boshqa kislotalar), 45 mg% gacha vitamin C, 0,3% gacha karotin, 10% gacha qandlar (4,3% gacha glukoza, 8% gacha fraktoza, 6,5% gacha saxaroza), antotsianlar, oshlovchi, pektin va boshqa moddalar bo‘ladi. Urug‘i tarkibida 14,6% yog‘ bor. Ishlatilishi. Quritilgan meva turli shamollash kasalliklarida terlatuvchi dori sifatida qo‘llaniladi. Ho‘l mevadan tayyorlangan sharbat farmatsevtikada suyuq dorilar (miksturalar) ta‘mini yaxshilash uchun ishlatiladi. Dorivor preparatlari. Damlama, mevadan tayyorlangan sharbat. Mahsulot terlatuvchi choy-yig‘malar tarkibiga kiradi. Maymunjon (*Rubus*) turkumi. G‘uborli



maymunjon (*Rubus caesius* L.) Ushbu yarim buta nafaqat Markaziy Osiyoning togii hududlarida, balki Qrim, Kavkaz MDH ning Yevropa qismida ham keng tarqalgan. Namlik bilan yaxshi ta'minlangan yerlarda, daryo bo'ylarida, eroziyaga uchragan jarliklarda, o'rmonlarda va yoilar yoqasida o'sadi. Maymunjon lianaga o'xshovchi yoysimon ko'rinishda tikanlar bilan qoplangan shoxlar to'plamidan iborat. Ushbu shoxlar 4-5 yildan so'ng quriydi, ular tez o'suvchi ildiz bo'g'imidagi tinim holatidagi kurtaklardan rivojlanuvchi, yangi shoxlar bilan doimiy ravishda almashinib turadi. Barglari murakkab, uchtalik, gullari oq, shirali, urug'chali to'q siyohrang qora rangda bo'lib oq g'ubor bilan qoplangan. Mevalaridan sharbat, murabbo, qiyomlar tayyorlashda hamda vinochilikda foydalaniladi.

Xulosa:

Maymunjonlar asosan vegetativ yo'l bilan tez ko'payadi, ba'zan o'tib bo'lmas chakalakzorlar hosil qiladi. Shu sababli maymunjondan manzarali bog'dorchilikda yashil devorlar sifatida ham foydalanilsa bo'ladi. Eroziyaga uchragan jarliklarni mustahkamlashda maymunjon ekish juda ham qo'l keladi. Bog'dorchilikda anatoliya maymunjoni (*Rubus anatolicus* Focke.) serhosilligi va tez o'sishi sababli keyingi paytlarda ko'plab ekilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Numonjonov M.G., Parpiyev A.T., Bozorboyev Sh.A., Vakhobova Sh.A. Alkaloids in some medicinal plants (*CAPPARIS* L, *HYPERICUM* L, *ACHILLEA* L,) their structure and significance. *SCIENCE AND EDUCATION* scientific journal ISSN 2181-0842 volume 1, ISSUE 4. July 2020[4]
2. Bozorboyev Shokhruxbek, Hamzaliyeva Madinabonu. *TECHNOLOGY OF GROWING, HARVESTING AND STORAGE OF LEMON PLANTS*. Volume 2 Issue 9, September 2022 ISSN 2181-2020
3. www.ziyonet.uz[3]
4. No'monjonov Muhiddin Gulomjon, O. G., O'G'Li, P. A. T., & O'G'Li, B. S. A. (2020). Oddiy bo'y modaron o'simligining morfo-fiziologik tavsifi va shifobaxsh xususiyatlari. *Science and Education*, 1(4), 26-29.
5. Numonjonov, MG, Parpiyev, AT, Numonjonova, MG, & Bozorboyev, SA (2021). Civandon (*achillea millefolium*l.) o'simligidagi vitaminlar va ularning inson



salomatligidagi ahamiyati. ACADEMICIA: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali, 11 (6), 912-917.

6.Xolmatov H.X., Ahmedov O. Farmakognoziya. - 1,2 qism.- Toshkent.: Fan, 2007.[6]

7.Xolmatov X. X., Habibov. O‘zbekiston dorivor o‘simliklari. Toshkent, 1971.[7]

